

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan
2025 yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT

O'tgan yil Agentlik tomonidan ko'p turdagi imtihonlar o'tkazilmoqda. Bu davlatimiz rahbari, hukumat qarorlari bilan zimmamizga yuklangan va yildan-yilga jadallashib bormoqda.

O'tgan yil hisoboti yuzasidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar:

Birinchidan, hisobot davrida bilim, ko'nikma va malakani baholash bo'yicha jami **50 ga yaqin** turdagi imtihonlar tashkil etildi hamda **1,8 mln. nafarga yaqin** talabgor test sinovlaridan o'tkazildi.

Jumladan:

davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish jarayonida **671 397 nafar** abituriyent ro'yxatdan o'tkazildi. Ularning **426 685 nafari** (**63,6 foizi**) — joriy yil bitiruvchilari, **244 712 nafari** (**36,4 foizi**) — avvalgi yillar bitiruvchilari hisoblanadi. Test sinovida ishtirok etganlardan **197 685** (2024 yilda **196 987**) nafari talabalikka tavsiya etilgan bo'lib, ulardan **101 238** (2024 yilda **97 413**) nafari xotin-qizlar va **96 447** (2024 yilda **99 574**) nafarini erkaklar tashkil etadi. Tavsiya etilganlardan **94 983** nafari grant (2024 yilda **47 838**), **102 702** (2024 yilda **149 149**) nafari to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan.

Umumta'lim fanlari bo'yicha (biologiya, kimyo, matematika, fizika, tarix, geografiya, ona tili, rus tili, qoraqalpoq tili) jami **545 457 nafar** talabgorning bilim darajasi baholandi. Bu ko'rsatkich 2024 yilda **136 999 nafar** edi, 2025 yilda **408 458** nafarga, ya'ni salkam **75% ga ko'paygan**.

Bular orasida oliy ta'limga o'qishga kirishga tayyorlanayotgan **361** nafar talabgor ham mutaxassislik, ham majburiy fanlardan – 5 ta sertifikatga ega bo'lishgan. Bu ko'rsatkich 2024 yilda 1 nafarni tashkil etgan edi.

Shuningdek, 2025 yilda **umumta'lim fanlari** sertifikati bilan **111 057** (2024 yilda **14 628**) nafar va **chet tillaridan** olgan sertifikati bilan **62 179** (2024 yilda **49 658**) nafar talabgor hujjat topshirgan. 2025 yilda **umumta'lim** fanlaridan olgan sertifikati bilan hujjat topshirgan talabgorlar soni 2024 yilga nisbatan **96 429** nafarga oshganligini ko'rish mumkin. **Chet tillaridan** o'tgan o'quv yilida 2024 yilga nisbatan **12 521** nafarga oshgan.

15 ta chet tili fanidan **4 ta** ko'nikma bo'yicha **360 613 nafar** talabgorning chet tilini bilish darajasini baholash uchun malaka imtihonlari o'tkazildi. Bu ko'rsatkich 2024 yilda **241 581 nafar** edi, 2025 yilda 119 032 nafarga, ya'ni **33% ga ko'paygan**.

Umuman olganda o'tgan o'quv yilida test sinovlari **65** ta binoda (2024 yilda **73** ta edi) **10** kun (2024 yilda **12** kun) davomida o'tkazilgan.

Bulardan tashqari:

Harbiy yo'nalishdagi imtihonlarda – **53 417 nafar** talabgor.

Akademik liseylar, o'qishini ko'chirish, nostrifikasiyada - **88466 nafar** talabgor.

Ichki ishlar organlariga ishga qabul, shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalari, milliy statistika faoliyati bilan shug'ullanuvchilar, rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar – **27022 nafar** nomzod

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti granti, "El-yurt umidi" jamg'armasi, qo'shma ta'lim dasturlari, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga o'qishga qabul qilish, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi magistraturasi, xorijiy OTMlar, ularning filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga ajratilgan davlat granti – **90 000 dan ziyod nafar** nomzod va hokazo.

Test topshiriqlarini shakllantirish, aprobasiya va statistka to'g'risida

15 ta umumta'lim fanidan **45 000 ga yaqin**, qardosh tillardan **9 000 dan ortiq**, sharq tillari hamda ispan va italyan tillaridan **4 000 dan ortiq**, **35 ta** maxsus fandani **17 000 dan ortiq** test topshirig'i shakllantirildi va ekspertizadan o'tkazildi.

15 ta umumta'lim fanidan va intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha tuzilgan **1 320 ta** namunaviy test topshirig'i aprobasiyadan o'tkazildi.

"Davlat fuqarolik xizmatchisi" test savollari to'plamini ishlab chiqish va yangilab borish bo'yicha **4 ta** yo'nalishda **810 ta** test topshirig'i shakllantirildi;

klassik va zamonaviy test nazariyalari asosida **150 ga yaqin** test variantlarining **statistik tahlili** amalga oshirildi.

Yangilik va o'zgarishlar to'g'risida

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28 yanvardagi 31-son qarori bilan Tillarni o'qitish, o'rganish va baholash bo'yicha umumiy Yevropa mezonlari (CEFR) talablariga muvofiq **chet el fuqarolari uchun o'zbek tilini bilish darajasi to'g'risida malaka sertifikatini berish** tartibi joriy etildi.

2. Hukumatning 2025-yil 13-sentyabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritildi.

O'zgarishlarga ko'ra, endilikda fanlar majmuasining chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish bo'yicha kamida B1 darajasidagi milliy yoki mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikat asosida amalga oshiriladi (avval B2 daraja edi).

Fanlar majmuasida chet tili mavjud bo'lgan ta'lim yo'nalishlariga qabul qilishda:

B1 darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan belgilangan maksimal ballning **75 foizi miqdorida ball beriladi**;

Shuningdek, B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan belgilangan **maksimal ball** beriladi.

Ushbu tartib joriy o'quv yilidan boshlab yo'lga qo'yiladi;

muddati o'tmagan barcha chet tillari sertifikatlariga taalluqli;

fanlar majmuasida birinchi yoki ikkinchi belgilangan bo'lishidan qat'i nazar, barcha chet tillaridan olingan sertifikatlarga joriy etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktyabrdagi 652-son qaroriga muvofiq, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlari o'qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimi yo'lga qo'yildi.

Ushbu yo'nalishdagi imtihonlar 2026-yil 25-27-fevral va 3-4-mart kunlari o'tkazildi.

Ayni paytda **huquq fanidan** bilish darajasini baholash bo'yicha test sinovini tashkil etish hamda uning natijalari asosida davlat namunasidagi sertifikat berish tartibi joriy etish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Shuningdek, manfaatdor vazirlik va tashkilotlar tomonidan umumta'lim maktablari bitiruvchilarining yagona davlat imtihonlari to'g'risida tegishli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunga kelib barcha viloyatlarda Agentlikning binosi ishga tushirilgan. Ular zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlangan. Har birida 1200 nafar talabgor uchun joy tayyorlangan, bitta smenada 1200, bir kunda ikki smena bo'lsa, 2400 nafar talabgor test sinovi topshirishi mumkin. Shuningdek, binolar jarayonlar adolatli va shaffof o'tishi uchun har bir bino to'liq videokuzatuv moslamalari bilan jihozlangan (150 tagacha) va alohida kuzatuv xonasi mavjud.

Xalqaro faoliyat to'g'risida

Agentlik tomonidan xalqaro hamkorlar bilan o'tkazilgan **xalqaro konferensiya** faoliyat uchun dolzarb bosqich bo'ldi.

“Bilim va malakalarni baholashda nazariy va amaliy yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mavzuida tashkil etildi va unda Buyuk Britaniyaning “Cambridge University Press and Assessment”, “AQA Global Assessment Services”, “Oxford AQA International Qualifications”, York universiteti huzuridagi Milliy STEM ta'lim markazi, Britaniya Kengashi, Amerika Qo'shma Shtatlarining “College Board”, “Educational Testing Service (ETS)”, Qozog'iston Respublikasi Milliy test markazi, Ozarbayjon Imtihon markazi, Qozon Federal universiteti, Qirg'iziston Respublikasi Milliy til siyosati bo'yicha davlat qo'mitasi huzuridagi “Kyrgyztest” davlat muassasasi va Ta'limda baholash va o'qitish usullari markazi kabi nufuzli tashkilotlardan **30 nafarga** yaqin vakillari ishtirok etdi.

Mazkur tadbir davomida muhim bo'lgan xalqaro tajribalar bilan tanishildi, tajriba almashildi, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari, vazifalar belgilandi.

1. Xalqaro hamkor tashkilotlar

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'z faoliyati davomida xalqaro miqyosda tan olingan bir qator tashkilotlar bilan hamkorlikni qilinmoqda.

Jumladan:

Buyuk Britaniyaning “Cambridge University Press and Assessment”, “Oxford University Press”, “AQA Global Assessment Services”, “Oxford AQA International Qualifications”, Britaniya Kengashi, AQShning “College Board”, “Educational Testing Service (ETS)”, “ITEP International”, “Scantron Corporation”, Qozog'iston Respublikasi Milliy test markazi, Ozarbayjon Imtihon markazi, Niderlandiyaning “Cito”, Turkiya Respublikasi Tanlash va joylashtirish markazi – ÖSYM, Yaponiyaning “Kei Advanced” tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Ushbu tashkilotlar bilan hamkorlik doirasida

- xalqaro imtihonlarni joriy etish
- test topshiriqlarini ishlab chiqish
- baholash tizimini takomillashtirish
- mutaxassislarning malakasini oshirish yo'nalishlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

2. Xalqaro imtihon turlari

Agentlik tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan quyidagi imtihon turlari o'tkazib kelinmoqda:

- Cambridge English Qualifications
- Cambridge Teaching Qualifications
- TOEFL iBT
- iTEP Academic
- Attanal Al Arabiy
- Oxford Test of English
- SAT
- DELTA
- CELTA

3. Agentlik **xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda:**

- Chet tillarni bilish darajasini baholash tizimini takomillashtirish;
- Test topshiriqlarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish;
- Baholash jarayonlarida ishtirok etadigan mutaxassislar bilan seminar-treninglar tashkil etish;
- Pedagogik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilish;
- Test topshiriqlarining sifatini xalqaro mezonlar asosida monitoring qilish.

4. **Malaka oshirish kurslari va tinglovchilar soni**

Agentlik huzuridagi Ilmiy-o'quv amaliy markazida hozirgi kunda 10 turga yaqin turli baholash sohasidagi malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirga qadar 2000 mingga yaqin pedagog kadrlar malakasi oshirildi.

2026 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar:

9 ta umumta'lim fani (biologiya, kimyo, matematika, fizika, tarix, geografiya, ona tili, rus tili va qoraqalpoq tili)dan talabgorlarning bilim darajasini baholash bo'yicha **500 ming nafarga** yaqin talabgor uchun milliy sertifikat imtihonlarini o'tkazish;

chet tilini bilish darajasini baholash uchun **16 ta** chet tilidan **4 ta** ko'nikma bo'yicha **350 ming nafarga** yaqin talabgor uchun malaka imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish;

nogironligi bo'lgan (I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalar) talabgorlar uchun **4 marotaba** chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha malaka imtihonlarini tashkil etish;

2026/2027 o'quv yili uchun davlat oliy va kasbiy ta'lim muassasalari bakalavriatiga **650 ming nafarga** yaqin abituriyent uchun o'qishga qabul qilish bo'yicha test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish;

15 ta umumta'lim fani, shuningdek, qardosh tillar, sharq, ispan va italyan tillaridan hamda maxsus fanlardan **60 mingdan** ortiq test topshiriqlarini shakllantirish va ekspertizadan o'tkazish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat olib boradigan **musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya fanlari hamda boshlang'ich ta'lim** o'qituvchilarining bilim

darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha **5 marotaba** milliy sertifikat imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish;

test sinovlarini o'tkazishga keng jamoatchilik orasidan guruh nazoratchisi sifatida jalb etiladigan **6 000 nafarga yaqin** nomzod uchun o'quv-amaliy seminar mashg'ulotlari tashkil etish va ular orasidan **3 ming nafarga** yaqin guruh nazoratchisini tanlab olish;

huquq fanidan bilish darajasini baholash bo'yicha test sinovini tashkil etish hamda uning natijalari asosida davlat namunasidagi sertifikat berish tartibi joriy etish;

chet tili va umumta'lim fanlaridan respublikada tan olingan xalqaro va milliy sertifikatlarni "yagona nuqta" tamoyili bo'yicha shartnoma asosida verifikasiya qilish va elektron ma'lumot taqdim etishning raqamlashgan tizimini yaratish;

- xalqaro sertifikat SAT va boshqalarni o'tkazish sur'atini oshirish;

- SAT va Elevel testlarini qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish.

2026 yildan boshlab — barcha (xitoy, koreys, yapon, ispan, italyan, fors, dari, pushtu, urdu, hindiy, uyg'ur) tillardan chet tilini bilish darajasini baholashning ko'p darajali (Multi-level) formatini joriy etish.

2025 yilda 3 ta katta Canon 8905 chop etish vositasi xarid qilingan bo'lsa, joriy yilda ulardan kuchli, o'z navbatida atrof-muhitga zararsiz, 2 barobar energiya tejamkor va 20 barobar kuchli professional chop etish texnika vositalari xarid qilinadi.